



Xorazm mahalliy qovunlarning tur tarkibi va agroekologik xususiyatlari.

Abdullayeva Maxliyo Otabek qizi – Abu-Rayhon nomidagi Urganch Davlat universiteti Biologiya yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida ekinlab mahalliy qovun navlarining tur tarkibi, bioekologiyasi va ularning shakli, tarkibidagi qand miqdori, vegetatsiya davri, hosildorligi haqida hamda Handalak, Gurvak, Amiri va Zard tur xillari asosida yaratilgan navlar haqida maʼlumotlar bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: Handalak, Gurvak, Amiri, Zard, Sariq handalak, Ola boʻrikalla, Ola gurvak, Mahalliy Xorazm obinavoti.

Аннотация. В данной статье представлена информация о видовом составе, биоэкологии и форме, содержании сахара, вегетационном периоде, урожайности местных сортов дыни, выращиваемых в условиях Хорезмской области, а также о сортах, созданных на основе сортов Хандалак, Гурвак, Амири и Зард.

Ключевые слова: Хандалак, Гурвак, Амири, Зард, Желтый хандалак, Ола борикалла, Ола гурвак, Местный Хорезмский виноград.

Abstract. This article presents information on the species composition, bioecology, and shape of local melon varieties cultivated in the Khorezm region, their sugar content, vegetation period, and yield, as well as information on varieties created based on the Handalak, Gurvak, Amiri, and Zard varieties.

Keywords: Handalak, Gurvak, Amiri, Zard, Sariq handalak, Ola bo'rikalla, Ola gurvak, Mahalliy Xorazm obinavoti.

Kirish. Xorazm mahalliy qovunlarning tur tarkibi va bioekologiyasi turlichadir. Nav belgilari oʻsish muhiti va joyiga qarab osongina turlanib oʻzgaradi. Meva va etining hajmi rangi, rang intensivligi, tarkibidagi qand moddasining miqdori, jugʻrofiy kelib chiqish, iqlim va tuproq sharoitlariga bogʻliq ravishda oʻzgarib turadi. Keyingi yillarda Xorazm mahalliy qovunlarining tabiiy namunalari va navlari kamayib bormoqda. Shundan kelib chiqib bu qovunlar turlari va navlarini saqlab qolish hamda koʻpaytirishning yangi agrotexnologik usullarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Natija va munozara. Qovun issiqsevar, yorugʻsevar oʻsimlik, qurgʻoqchilikka va tuproq shoʻrlanishiga chidamli. Jahonda eng yaxshi qovunlar Oʻzbekistonda yetishtiriladi. Xalq seleksiyasida uning 150 dan ortiq navi yaratilgan. Oʻzbekiston



sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik institutida ilmiy seleksiya asosida chiqarilgan va yaxshilangan 50 dan ortiq nav rayonlashtirilgan. O'zbekistonda ekiladigan qovun navlari to'rt botanik turga mansub: handalak, amiri, kassaba va zard. Handalak turiga deyarli barcha ertapishar Qovun navlari — Ko'kcha, Handalak, sariq handalak, Zamcha va boshqa kiradi. Amiri turiga barcha yozda pishadigan Qovun navlari — Davlatboy, Toshloqi, Dahbedi, kassaba turiga Bo'rikalla, Gurvak, zard turiga qishki Qovun navlari (Umrboqiy, Ko'ybosh, Gulobi) va boshqa kiradi. Urug'i tuproq harorati 14— 15° ga yetganda una boshlaydi (13° dan past haroratda urug' chirydi). Ekilgandan keyin 5—7 kunda maysa unib chiqadi. Qovunning ertapishar, o'rtapi-shar, kechpishar navlari bor. Qovun mevalarining yirikligi, shakli va po'stining to'rlanishi bir tup doirasida katta farq qiladi. Ta'rifda qayd etilgan yuza sirti turlari bir meva doirasida qo'sh holda (siliq turidan tashqari) uchrashi mumkin. Odatda to'r mevalarning etilishi davrida paydo bo'lib, faqat birinchi mevalarda bo'ladi va u o'sish muhitiga bog'liqdir. Qovun mevalarining rangi nihoyatda hilma-hildir. Surati va sirtining rangi alohida hisobga olinadi. Ko'pincha asosiy ranglarga turli tuslar qo'shiladi. Xorazm maxaliy qovunlari quyidagi tur va navlarga bo'linadi. 1. handalak tur xillari, 2.gurvak tur xillari, 3.amiri tur xillari, 4. zard tur xillari.

1-jadval Xorazm mahalliy qovun navlari va ularning tarkibi, hosildorligi.

Qovun nomlari	Mevasining shakli	Qand miqdori	Ye Vegetatsiya davri.	Hosildorligi. t/ga
Qari qiz	ovalsimon	7-9,0%	o`rtapishar (95-106 kun)	35 t
Gulobi Xorazmiy	silindrsimon	10,4%.	kechpishar (120-125 kun)	35-40 t
Amudaryo	cho'ziq ellipssimon	11,4%.	kechpishar (116- 125 kun)	41-48 t
Hamma beshak	cho'ziq tuxumsimon	13%	kechpishar (115-136kun)	40-50 t
Gurlan	ovalsimon cho'ziq	8,7%	kechpishar (108-120 kun)	47-56 t
Maxalliy qoraqand	yumaloqsimon	8,3-11,4%	kechpishar (107-108 kun)	25-35 t
Maxalliy (k-1175)	ellipssimon	9,0-11,0%	kechpishar (110-120kun)	30 t



Maxalliy beshak	tuxumsimon	7,6-10,2%	kechpishar (110-115 kun)	35-50 t
Shirin beshak	cho'ziq tuxumsimon	9,5%	o`rtapishar (85-95 kun)	20-25 t
Maxalliy (k-1170)	ellipssimon yoki tuxumsimon	7.5-10,5%	o`rtapishar (80-90 kun)	35-50 t
Non go'sht	ellipssimon	10,7- 10,4%	o`rtapishar (88-95 kun)	25-35 t
Olacha	ellipssimon	9,9%	o`rtapishar (85-95 kun)	30-35 t
Oq sut	ellipssimon	7,0%	o`rtapishar (85-90 kun)	25-35 t
Sariq po`choq	ellipssimon	10,3%	o`rtapishar (85-90 kun)	30-45 t
Zarkokil	ellipssimon yoki tuxumsimon	10,7%	o`rtapishar (85-90 kun)	35-50 t
Maxalliy (k-1166)	tuxumsimon	9,9%	o`rtapishar (85-90 kun)	25 t
Oq sut	ellipssimon	7,0%	o`rtapishar (85-90 kun)	25-35 t
Ko`k tinni	silindrsimon	8,0-11,0%	o`rtapishar (80-85 kun)	22-26 t
Xitoyi amiri	urchuqsimon	7,0-9,5%	o`rtapishar (80-90 kun)	20-25 t
Bargi 816	tuxumsimon	8,0-10,0%	o`rtapishar (80-87 kun)	25 t
Suyunchi-2	ovalsimon	10,1%	o`rtapishar (82-89 kun)	20-24 t
Ola gurvak	dumaloq	8,8%	o`rtapishar (95-105 kun)	28-35 t
Ko`k gurvak	dumaloq yoki ovalsimon	7,4-9.7% (16%)	o`rtapishar (90-100 kun)	28-45 t



Oq gurvak	dumaloq yoki ovalsimon	9-10%	o`rtapishar (90-100 kun)	25-30 t
Alleke	ellipssimon yoki silindrsimon	8,5-10,5%	o`rtapishar (70-100 kun)	23-28 t
Maxalliy (k-1164)	dumaloq	10,7%	o`rtapishar (80-85 kun)	25-30 t
Zarmiton	tuxumsimon	7,7-8,4%	o`rtapishar (70-75 kun)	18-22 t
Maxalliy bo`rikalla	yapaloq yoki yumaloq	7,4-9,6%	o`rtapishar (75-80 kun)	25-35 t
Ola bo`rikalla	dumaloq	8,0-11,0%	o`rtapishar (75-80 kun)	20-25 t
Maxalliy Xorazm obinavoti	ellipssimon yoki dumaloq	7,4-9,3%	o`rtapishar (70-78 kun)	18-25 t
Ko`k zamcha	dumaloq yoki yapaloq	9,0-10,0%	ertapishar (70-75 kun)	24-26 t
Sariq handalak	yapaloq	6,0-7,8%	ertapishar (62-70 kun)	18-20 t
Maxalliy handalak	yapaloq	7,5%	ertapishar (65-70 kun)	18-20 t
Maxalliy sariq handalak	yapaloq	4,0-5,0%	ertapishar (60-65 kun)	20-23 t
Oq sut	ellipssimon	7,0%	o`rtapishar (85-90 kun)	25-35 t

Xulosa.Hozirda Xorazm mahalliy qovunlarining 4 ta tur xillari asosida yaratilgan 30 dan ortiq navlari saqlab qolingan.Ular mevasining shakli,tarkibidagi qand miqdori,pishib etilishsh davri va hosildorligi bilan bir-biridan farq qiladi.Shu bilan birga ularda turli xil kassaliklar va zararli hashoratlarga chidamliligi,ekologik stress omillarga ,sho`rlanishga hamda suvsizlikga moslanish xususiyatlarida ham farqlar mavjud.Kelajakda bunday noyob navlarni saqlab qolish,ko`paytirish va keyingi avlodlarga yetkazib berish uchun har bir nav kesimida chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarur.



Foydalanilgan adbiyotlar.

- 1.X.Ch.Buruyev,A. Ya.Nishinova.Polizchilik.Darslik.Toshkent-2020.
- 2.Bo‘riyev X.Ch.. Ashurmatov O.A., Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. T.. 2001.
- 3.Hakimov R.A., Hakimov A.S.. Toshmuhamedov A., Sabzavot va poliz ekinlari urug‘chiligi, T., 2003.